

“Uzbekistan Airways” aviakompaniyasining biznes klass yo‘lovchilari uchun mo‘ljallangan yo‘l to‘plamlari ikkita xalqaro tanlovda eng yaxshi deb e‘tirof etildi

2020 30 May

“Uzbekistan Airways” nufuzli 2020PAX International Readership Awards mukofotini qo‘lga kiritdi, ushbu mukofot butun dunyo aviakompaniyalari o‘rtasida yo‘lovchilarga eng qulay sharoitlarni ta‘minlaganligi uchun taqdim etiladi. Aviakompaniya “MDH mamlakatlari ichida biznes klass yo‘lovchilariga eng yaxshi to‘plam” nominatsiyasi bo‘yicha ushbu mukofotga sazovor bo‘ldi.

Mukofot Kanadaning transport sohasida keytering va qulaylik yaratish masalalariga bag‘ishlangan “PAX International” jurnali tomonidan ta‘sis etilgan bo‘lib, jurnal o‘quvchilari va ha‘at a‘zolarining bergan ovozlari asosida topshiriladi. “Uzbekistan Airways” ushbu nufuzli mukofotga ikki yil ketma-ket sazovor bo‘lmoqda.

Tashkilotchilar saytida ta‘kidlanganidek, “Uzbekistan Airways” yo‘l to‘plamlari – bu erkaklar uchun sipo qora va ayollar uchun yorqin qizil rangli ixcham kosmetik sumkalardan iborat bo‘lib, barcha detallariga katta e‘tibor qaratilgan holda ishlab chiqilgan va parvoz paytida yo‘lovchilar uchun zarur bo‘lgan barcha narsalarni o‘z ichiga oladi”



THIS IS TO CERTIFY THAT
UZBEKISTAN AIRWAYS
HAS BEEN AWARDED A
GOLD AWARD
FOR
BUSINESS CLASS ASIA/AUSTRALASIA
SUPPLIED BY AK SERVICE
IN THE
TRAVELPLUS AIRLINE AMENITY AWARDS

TRAVELPLUS
awards


Simon Ward, Founder



“Uzbekistan Airways” 2019-yil yakunlari bo‘yicha “Travel Plus Awards” tanlovida ham o‘zining yetakchilik mavqeini yana bir bor tasdiqlab, “Osiyo / Avstraliya mintaqasidagi eng yaxshi biznes-klass to‘plami” nominatsiyasida g‘olib bo‘ldi.

“Travel Plus Awards” - ushbu soha tarixidagi ilk mukofotlardan biri bo‘lib, u Angliyada tashkil etilgan va eng yaxshi yo‘l to‘plamlari uchun beriladi. Qarorni nafaqat ekspertlardan, balki yo‘lovchilar fikrini hisobga oladigan maxsus guruhdan tashkil topgan mustaqil hakamlar hayati qabul qiladi.

“PAX International Readership Awards” va “Travel Plus Awards” mukofotlari bilan taqdirlash marosimi odatda har yili bahorda Gamburgda bo‘lib o‘tadigan World Travel and Catering EXPO ko‘rgazmasi doirasida tashkil etiladi. Bu yil esa, epidemiologiya vaziyati tufayli PAX International barcha nominatsiyalar bo‘yicha g‘oliblar ro‘yxatini o‘zining saytida e‘lon qildi, “Travel Plus Awards” taqdirlash marosimi esa platformasida onlayn bo‘lib o‘tdi.

Yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, servis ashyolarini ishlab chiqish va ularning turlarini kengaytirish "Uzbekistan Airways"ning eng muhim maqsadlaridan biridir.

Biz pandemiyani yengishimizga, fuqaro aviatsiyasi yana dunyo bo'ylab parvozlarni davom ettirishiga va "Uzbekistan Airways" dunyo aviatsiya hamjamiyatida o'z mavqeini mustahkamlashda davom etishiga ishonamiz.